



QURILISH IQTISODIYOTIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Abdullaev Axror Jaxbarovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15105375>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 28- Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 29- Mart 2025 yil

KEY WORDS

Qurilish, iqtisodiyot, innovatsion, raqamli, texnologiyalar, barqaror rivojlanish, resurs tejamkorligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qurilish iqtisodiyotida innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ta'hlil qilinadi. Texnologik innovatsiyalar, raqamli modellash va ustuvor rivojlanish konsepsiyalari asosida yangi yondashuvlar taklif etilgan.

Qurilish sohasi iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu sohaning samarali rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda qurilish sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali resurs tejamkorligi, xarajatlarni qisqartirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada qurilish iqtisodiyotida innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish va ularni joriy etish imkoniyatlarini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Xususan iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi orasidagi mutanosiblikni ta'minlash hamda farqlarni qisqartirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, aynan qurilish sohasini rivojlanishida soha bozorida bozor qonunlarini amalga qilish darajasi boshqa sohalarga nisbatan biroz ortda qolganligini ilmiy tadqiqot ishining oldingi qismlarida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida sohada xususiy mulkni shakllantirish, xususan kichik biznesni rivojlantirish, uning soha mahsulot va xizmatlarini yaratishdagi ulushini oshirish kabilar qaraladi.

Tadqiqot ishining oldingi qismlarida Toshkent viloyati misolida hududda qurilish ishlar hajmi bilan sohadagi KBXTning soni o'zgarishi orasidagi regression tahlilni amalga oshirilgan bo'lib, uning asosida ikkita ko'rsatkich orasidagi bog'liqlik baholab o'tilgan. Shuningdek, aynan qurilish ishlari hajmini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar o'rganilgan holda ularning ta'siri ham baholab o'tilgan. Mazkur tahlillar natijasida olingan koeffitsientlarga asoslangan holda hududda qurilish sohasida KBXTni rivojlantirish istiqbollari belgilab berish maqsadida quyidagi ssenariyni taklif qilib o'tmoqchimiz (1-jadval).

Ssenariyni ishlab chiqishda asosiy o'zgaruvchilar sifatida viloyat hududiy birliklarida sanoatning o'sish darajasi, nominal ish haqining o'zgarishi, aholi soni va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning oldingi yilga nisbatan real o'sish darajalari olingan.

Ushbu ssenariyni ishlab chiqishda har bir o'zgaruvchi bo'yicha ikkita ko'rsatkich olingan bo'lib, birinchisi majud real o'sish darajasi va ikkinchisi rejalashtirilgan o'sish darajasi keltirilgan. Mavjud o'sish darajasi ayni paytdagi real o'sish darajasini ifodalasa,

rejalashtirilgan o'sish darajasi kelgusida kutilayotgan o'sish darajasini ifodalaydi.

Mazkur ssenariylarni ishlab chiqishda viloyat hududiy birliklari rivojlanishidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilgan, bo'lib birinchi ssenariyda real o'sish darajasi viloyatdagi o'rtacha darajadan past bo'lgan hududlardagi o'sish darajasini o'rtacha darajaga olib chiqish holati qarab chiqilgan.

Xususan, viloyatda sanoatning mavjud o'sish darajasi 15.6 foizni tashkil qiladi va biz buni viloyat hududlari kesimidagi o'rtacha o'sish sifatida qabul qilgan holda 15.6 foizdan past o'sish darajasiga ega bo'lgan hududlardagi o'sish darajasini aynan 15.6 foizga yetkazish masalasi qarab chiqildi. Buning ta'minlanishi, viloyatda sanoatning o'sish darajasini 19 foizga yetkazish ikoniyatini beradi. Bu o'z navbatida hududiy birliklarda sanoatning rivojlanishidagi farqni qisqartirishga yordam beradi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalarini ko'rsatishicha, viloyat hududlari rivojlanish darajalari orasidagi farqning mavjudligi viloyatda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari hajmini o'sish darajasini ta'minlash mumkin bo'lgan darajadan past bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida viloyatda qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan KBXT sub'ektlari sonini oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki, viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi bilan qurilish sohasidagi KBXT sub'ektlari soni o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud bo'lib amalga oshirilgan qurilish ishlarini hajmini 1.45 mlrd. so'mga oshishi sohada faoliyat olib borayotgan KBXT sub'ektlar sonini bir birlikka oshishini ta'minlaydi.

Olingan natijalarga asoslangan holda har bir ssenariy natijasida oshirilishi ta'minlangan qurilish ishlari hajmi sohada faoliyat olib borayotgan KBXT sub'ektlari sonini nechta birlikka oshirilishi keltirib o'tiladi (1-jadval).

Tahlillardan ko'rinadiki qurilish pudrat ishlari hajmi hamda sohada faoliyat olib borayotgan KBXT sub'ektlar sonidagi eng yuqori o'zgarish 1-ssenariyda erishilgan. Ushbu ssenariyda asosiy e'tibor qurilish montaj ishlariga ta'sir qiluvchi asosiy o'zgaruvchilar bo'yicha o'sish darajalarini hududlar kesimida qarab chiqilgan bo'lib, o'rtacha o'sish darajasidan past o'sish darajasiga ega bo'lgan hududlarning o'ratacha darajaga olib chiqish masalasi qarab chiqilgan.

1-jadval.

Har bir ssenariy bo'yicha viloyatda qurilish montaj ishlari hajmi va sohada KBXT sonining oshishi¹

	2018 yilda amalga oshirilgan qurilish pudrat ishlari hami	Ssenariy bo'yicha ta'minlangan qo'shimcha o'sish natijasida qurilish montaj ishining oshishi (mlrd so'mda)	Viloyat qurilishi sohasida oshishi kutilayotgan KBXT sub'ektlari soni
1-ssenariy	2543,2	351,0	242,0
2-ssenariy	2543,2	96,6	66,6
3-ssenariy	2543,2	63,6	43,8
4-ssenariy	2543,2	127,2	87,7
5-ssenariy	2543,2	48,3	33,3
6-ssenariy	2543,2	124,6	85,9
7-ssenariy	2543,2	122,1	84,2

¹ Muallif ishlanmasi

Olingan natijalardan ko'rinadiki, viloyatda qurilish sohasida KBXT sub'ektlari sonini oshishi bevosita viloyat hududiy birliklari rivojlanish darajalari orasidagi farq bilan bog'liq bo'lib, uning bartaraf qilinishi qurilish sohasida KBXT sub'ektlari sonini oshishini ta'minlaydi.

Tadqiqotda amalga oshirilgan hisob-kitoblarimiz natijalariga ko'ra, viloyatda qurilish sohasida KBXT sub'ektlari sonini eng katta miqdorga ya'ni 242 taga oshishi birinchi ssenariyda ta'minlangan. Keyingi o'rinlarda to'rtinchi, oltinchi va yettinchi ssenariylar kelmoqda.

Aynan birinchi va yettinchi ssenariylar uchun rejalashtirilgan o'sish darajasini aniqlashda hududiy birliklar rivojlanish darajasi orasidagi farqni bartaraf etishga qaratilganligi, qurilish sohasida KBXTning o'sishini ta'minlashda hududiy birliklar rivojlanish darajalari orasidagi farqlarni qisqartirish lozimligi haqidagi xulosalarimizni tasdig'i bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqorida qurilish sohasida KBXTning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar asosida KBXTni rivojlantirishning turli xil ssenariylari keltirib o'tildi. Biroq tahlillarimizni ko'rsatishicha barcha sohalarda, shu jumladan qurilish sohasida KBXTni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omillardan biri sifatida yangidan tashkil qilingan korxonalar soni maydonga chiqadi. Ammo tashkil qilingan KBXT sub'ekti bozorda yashab qolsagini ijobiy natijani ta'minlaydi, aks holda u teskari ta'sirga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tadbirkorlik sub'ektini yashab qolishi va muvaffaqiyati bevosita u tomonidan yaratilgan tovarning realizatsiyasi bilan bog'liq va bu takror ishlab chiqarishni davom ettirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik sub'ektlari yashab qolish va yuqori daromadga ega bo'lish uchun bozorda o'z ulushi hamda iste'molchilariga ega bo'lishga harakat qilishadi. Aynan qurilish sohasida korxonalar o'z iste'molchilariga ega bo'lish uchun boshqa soha vakillariga nisbatan ko'proq harakat qilishi talab qilinadi, chunki mazkur soha tomonidan yaratilgan mahsulotlar uzoq muddatli foydalaniladigan, investitsion tovar hisoblanadi.

Qurilish tashkiloti va mijozning o'zaro hamkorligining ikkinchi shakli shundan iboratki, mijoz mahsulotning eng foydali deb bilganini tanlash bilan band bo'lgani holda qurilishning umumiy shartlarini e'tibordan chetda qoldiradi. Bunday holatda mijoz to'lovni yetkazib berilgan ob'ekt uchun emas balki qurilish tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan qurilish va montaj ishlarining muayyan miqdori uchun qiladi.

Ushbu muayyan shartlarga asoslangan tizimni vaqtga asoslangan deb atash mumkin bo'lib, qurilish tashkilotlari ob'ektning qurilishini kechiktirishini rag'batlantiradi. Qurilish muddati qanchalik uzoq davom etsa, korxonalar tomonidan olinadigan mablag'lar miqdori ham shunchalik ko'p bo'ladi va foydaning ham shunchalik ko'p bo'lishini ta'minlaydi. Bu holatda mijoz o'zi bilmagan holatda yutqizadi va bu tizim qurilish xizmatlariga bo'lgan talab yuqori bo'lgan sharoitlarda vujudga kelishi mumkin. Bu esa qurilish sohasida KBXTning rivojlanmagan va raqobatlashmagan bozor holatini ifodalaydi.

Uchinchi usul qat'iy ravishda qurilish tashkiloti maksimal foyda olishini nazarda tutmaydi. Uni amalga oshirishda menejerlar nafaqat qurilish xarajatlarini balki umumiy xarajatlarni qisqartirish, qurilish ustidan nazoratni kuchaytirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, shartnoma majburiyatlariga binoan qurilish jarayonini ritmik moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojdan ozod qilingan.

Bunday holda ob'ektlarni qurish va ta'mirlash o'z kuchiga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladi. Bu yerda xarajatlar hisobini aniq olib borish qiyin, chunki o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlarini bozor narxida ifodalashdagi muammolar mavjud. Buyurtmachi va pudratchining bir shaxs bo'lishi, smeta taxminiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi, u qat'iy moliyaviy cheklolarga ega bo'lmaydi. Ushbu tizim asosida faoliyatini tashkil qilgan korxonalar menejerlari turli xil huquqbuzarliklarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatga ega bo'lishadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sohada KBXTning rivojlanishi bevosita ular tomonidan

yaratilgan mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish bilan bog'liq. Shuningdek, keltirilgan usullar qaysi birini ustunlikka egaligi esa sohada KBXT, bozor qonunlari va raqobat kurashini rivojlanganlik darjasini aniqlashga imkon yaratadi. Fikrimizcha KBXTning rivojlanishi birinchi usulni ustunlik qilishini ta'minlaydi.

Tahlillarimiz natijalariga ko'ra mintaqada qurilish sohani rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida sanoatning rivojlanishi, nominal ish haqi, aholi soni hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar qaralgan bo'lib, hududiy birliklarda mazkur ko'rsatkichlar orasida farqning yuqoriligi asosiy muammo sifatida qaraladi. Ishlab chiqilgan ssenariy natijalariga ko'ra hududiy birliklarda mazkur ko'rsatkichlar orasida farqning kamaytirilishi qurilish montaj ishlaridagi yillik o'sish darajasini 10.1 foizdan 23.9 foizga oshishini bu esa o'z navbatida qurilish sohasidagi KBXT sonini 242 birlikka oshishini ta'minlaydi.

Shuningdek, qurilish sohasida mahsulotlarni sotib olishda ishlab chiqaruvchi va mijoz orasidagi hisob-kitobni tashkil qilish soha shu bilan birga KBXT rivojlanishiga ta'sir qiladi. Fikrimizcha mijoz to'lovni amalga oshirilgan qurilish ishlariga to'lash asosida bosqichma-bosqich to'lovni amalga oshirib borishi sohada bozor qonunlarini rivojlantirish, monopoliyani bartaraf etilish hamda KBXTni rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qurilish iqtisodiyotida innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi sohaning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Zamanaviy texnologiyalardan foydalanish orqali xarajatlarni optimallashtirish, resurs tejamkorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi loyihalash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni joriy qilish qurilish iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, innovatsiyalarning tizimli tatbiq etilishi sohaning kelgusi taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har
2. tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2016 yil 5 oktyabr// Xalq so'zi, 2016 yil 6 oktyabr.
3. Abulqosimov Hasan Pirnazarovich O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiy-tadbirkorlikni-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash-mehanizmi> (data obrasheniya: 22.04.2023).
4. Gronhaug, Kjell&Kvetastein, Olav. (1993). Distributional involvement in international strategic business units// *International Business Review*// Volume 2, Issue 1, 1993, Pages 1-14
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
6. <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7886>
7. Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
8. Matyakubov, A. M., & Matrizayeva, D. (2019). Sustainable economic growth with innovative management in Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (76), 250-257.
9. Metyakubov A. D., Matrizayeva D. Yu. Ekonomicheskiy analiz effektivnosti upravleniya investitsiyami v promyshlennosti // *Byulleten nauki i praktiki*. 2020. T. 6. №7. S. 251-256.

<https://doi.org/10.33619/2414-2948/56/27>

10. Matrizaeva D. Yu., Mirdjalilova D. Sh. ОПЫТ RAZVITYX STRAN PO PRIMENENIYuSERVEYINGA VSFERE UPRAVLENIYa NEDVIJIMOSTYu //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 22. – S. 371-376.
11. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. D. ADVANCED HOUSING FUND MANAGEMENT SYSTEM AS A TOOL FOR IMPROVING DELIVERY OF MUNICIPAL SERVICES ON CLIENT SATISFACTION //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – T. 17. – №. 6. – S. 3177-3188.
12. Metyakubov A. D. Voprosy privlecheniya investitsiy v promyshlennosti Respubliki Uzbekistan (na primere proizvodstva stroitelnykh materialov) // Byulleten nauki i praktiki. 2018. T. 4. №7. S. 379-387. Rejim dostupa: <http://www.bulletennauki.com/metyokubov> (data obrasheniya 15.07.2018).
13. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. J. Creating and developing special industrial zone in the region of lower reaches of Amu Darya River //The Thirteenth International Conference on Economic Sciences 24th November. – 2016. – S. 103-109.
14. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. D., Matrizaeva D. Yu. Analiz effektivnosti upravleniya investitsiyami v promyshlennosti stroitelnykh materialov. – 2020.
15. Metyakubov A. D., Boltaev U. T. Tendensiya ekonomicheskogo razvitiya proizvodstva stroitelnykh materialov v Respublike Uzbekistan //Byulleten nauki i praktiki. – 2021. – T. 7. – №. 3. – S. 243-249.

INNOVATIVE
ACADEMY